

Amir Temurning Anqara janggi haqida

Ròziboyeva Maftuna

Raxmonova Madina

Davlatov Orzuqul

Abdusodiqov Javohir

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Usmoniylar va Temur o'rtasidagi Anqara jangining manbalarda yoritilishi nomli maqolada O'zbekiston va jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan Amir Temurning o'rta asrlardagi buyuk imperiya hukumdori Yildirim Boyazid bilan olib borgan jangi to'g'risida so'z yuritiladi. 35 yillik faoliyati davrida Movorounnahr, Xorazm, Kasbiy atroflari viloyatlari, hozirgi Afg'oniston, Eron, Iroq, Turkiya, Hindiston, Janubiy Rossiya, Kavkaz va Garbiy Osiyoning bir qator mamalakatlaridan jami 27ta o'lka hududlarini egallab, sharqiy chegarasi Usmonlilar davlati hududiga borib taqalgach ikki o'rtada bo'lgan jang holati haqida ma'lumot beriladi. Yurish davomida bo'lgan jang taktikasi va voqealar o'rganilib tahlil qilinadi.

Kalit so'zi: Anqara jangi, Yildirim Boyazid, temir yaliq, Tumanboshi, xat,

Suriya, muhoraba, jangovar aravalar, Quدرات top.

Amir Temur 1370-yil markazlashgan davlatga asos solgach, birin-ketin katta hududlarni egallay boshladi. Uning harbiy yurishlari tarixda „ uch yillik‖(1386-1388), „besh yillik‖ (1392-1396), „yetti yillik‖ (1399-1405) urushlar deb nom oldi. Budan „ yetti yillik‖ harbiy yurishlari davrida Kichik Osiyoda hukumronlik qilayotgan Usmoniylar imperiyasi hukumdori Boyazid bilan jang qildi. Bu jang tarixga Anqara jangi nomini oldi. Shom shaharlarini zabt etganimdan keyin va Misru Shom podshosi Malik Faraj jang maydonini tashlab qochgandan so'ng Runga yuborgan elchim Yildirim Boyazidning teskari javobini olib keldi. Lekin (Boyazid) Misr va Shom lashkarlarini mendan yengilganini eshitgach, o'ylanib qolgani va sarosimaga tushib, shoshilinch ravishda yurushga tayyorgarlik boshlaganini hama aytdi. Men esa kengashib Damashq shahrini olib, Shom viloyatini bo'ysundirgach Mo'sul yo'li bilan Bog'dodga qarab yurdim. Amirzodalar Bog'dodga yetib shaharni qurshab oldilar. Vaziyat urush qilishga borib taqalgach, (chopar orqali) bir haqiqatni menga arz qildilar. (Bu xabarni) eshitib o'zim Bog'dodga borib, shahar va qal'ani ozod etishga qaror qildim. Tabriz yo'lidan orqaga qaytib, yurish bilan Bog'dodga keldim va ehtiyotkorlik bilan harbiy hiylalarni ishlatib, qal'ani qo'lga olishga kirishdim. Qamal ikki oy -u yana bir necha kun cho'zilgandan keyingina qal'a bilan shahar ishg'ol etilib, g'alaba qozonildi Bog'doddan ketib Ozorbayjonga yurish qilishga jazm qildim

va o'sha yerda bir qancha vaqt turib qoldim. Shu asnoda qaysar Halab, Hums va Diyorbakr viloyatlarini lashkari farjlarni yuborgani va mendan qochib Qaysar panohiga kirgan Qora Yusuf turkman esa qaroqchilar boshlig'iga aylanib, ayniqsa ikki muqaddas shahar ziyoratiga qatnovlarning karvonlariga ko'p zarar keltirayotganligi xabari quloqqa eshitildi. Buning ustiga o'sha tarafdardan bir jamoa kishi kelib, ular ham Qora Yusufning jazosini berib, qaysarning ko'zini g'aflat uyqusidan ochib qoyishim lozim ekanligi haqida aytdi. Bu xususda kengash o'tkazib, har bir shahar va qabilalardan lashkar to'plab, Qaysarning ustiga yopirilib borishga qaror qildim.[1] Boyazidga qarshi birgalikda kurashish taklifi bilan 1401-yilning avgust oyida Kanstantinopolning muvaqqat hokimi Ioan VIII Poleolog Qorabog'ga Temur qarorgohiga Dominikan monarxlari Frensis bilan Aleksandrni elchi qilib yuboradi. Yunoniston imperatori Manuel III Tranzonlik va arxiyepiskop Sultoniyalik ham mana shunday taklif bilan Temurga murojaat qiladilar. Venetsiya Temur agarda Boyazidga qarshi urish boshlagudek bo'lsa, kemalar bilan yordam qilishga vada beradi. O'z navbatida Temur bilan Boyazid o'rtasida ham yozishmalar olib boriladi. Boyazid o'z maktubida Temurga birgalikda Yevropaga qarshi kurashish imkoniga ishora qildi. Biroq, Temur bu taklifni rad qilib, usmonli turklar saroyida panoh topgan turkmanlarning isyonkor Oqqoyunli va Qoraquyunlu qabilalarining boshliqlarini unga topshirishni talab qildi. Turklar to'satdan Suriyaga hujum qilib, uning ma'muriy shaharlarini harob etdilar. Suriyadagi bu muvaffaqiyat turklar bilan arablar o'rtasida nizo yaratgan. O'zimdan ilgari lashkarlarimdan bir necha favjini rum mamlakati ustiga to'satdan bosqin qilishga tayinladim. Yana bir necha favji ga yo'limizdagi to'xtash manzillarini ko'zdan kechirib yemish va ichmishni hozirlab turishni buyurdim, o'zim Anguriya yo'li bilan Qaysar ustiga lashkar tortdim. Qaysar to'rt yuz ming otliq va piyoda askar bilan menga yuzlandi. Men Yildirim Boyazidni qo'shini, shaxsiy tarkibi, harbiy qurol -yarog'i haqida hech qanday ma'lumotga ega emasdim. Shuning uchun Toqat eng ishongan sarkardamga bir guruh navkarlar bilan dushman qarorgohiga yaqin borib, bir necha dushman jangchilarini asir olib kelish vazifasini topshirdim. Biroq Toqat quruq qo'l bilan qaytib keldi. Besh nafar jangchilaridan ajralibdi. Dushman hushyor ekan -yaqin borishni iloji bo'lmabdi. ... Shovur-shuvur boshlanib ketdi. Mening e'tiborimni qulog'imga elas-elas chalinayotgan musiqa ohanglari tortdi. Rum hukumdori aftidan shunday usul bilan jangchilarning jangovar kafiyatini ko'tarsa kerak. [2] Temur bilan Boyazid o'rtasida jang 1402-yilning 28-iyulida Anqara yaqinida boshlanadi. Shuning uchun bu muhoraba tarixda „Anqara janggil bilan ma'lum. Muhorabada har ikki tomondan 400ming nafar yaxshi mashq ko'rgan janglarda

chiniqqan jangchi va lashkarboshilar ishtirok etadi. Bu tarixiy jang Amir Temurning buyuk sarkardalik qobilyati va mahorati har tomonlama nomoyon bo'ladi. 200ming Temur qo'shining o'ng qanotiga a o'g'li Mironshoh, chapqanotiga nabiralari Sulton Husayn va Xalil Sultonlar kenja o'g'li Shohrux qomondonlik qiladi. Samarqanddan yetib kelgan yangi jangovar qismlardan tashkil topgan qo'shin markazini Temurning so'nggi nabirasi valiahdi Muhammad Sulton boshqaradi. Qo'shin markazining manglayida uchiga yarim oy shaklidagi zangori davlat alami (bayrog'i) muttasil tutib turiladi. Dushmanning jangovar aravalari butunlay izdan chiqarilganini aytishdi. Boyazidning qochgani haqida ma'lumot berishdi. Nuh Badaxshoniy nima bo'lmasin uni tutib kelaman deb, ortidan taqib etib ketganini aytib, meni tinchlantirishdi. Jang tugab dushmanning oltmish ming jangchisi asir olinganini menga aytishdi. O'sha kuni shahar rahbarlarining yig'ini bo'ldi. Asirlar orasida, ayniqsa sarkardalari badal to'lovini qilsa, asirlikdan ozod qilishnishi mumkinligi aytili. Qolgan tutqinlarning taminoti bosh mustavfi (Boyazid saroyining bosh hisobchisi) zimmasiga yuklandi. O'sha kuni bosh mustavfiyini huzurimga chaqirtirib, Rum mamlakatida soliq tushumlari haqida ma'lumotni talab qildim. Undan ma'lum bo'ldiki, xazinaga yarim qurur boyazid (Boyazidi- Rum mamlakatida o'sha davrda amalda bo'lgan pul birligi) mavjud bo'lib, yana ikki yarim qurur soliq mablag'i endi kelib tushishi kerak edi. Bosh mustavdiyga dedim: „Bundan buyon Rumning hukumdori men ekanman, soliq va boshqa yig'inlardan kelib tushadigan boyliklar menga kelib tushishi kerak!“. Ertasi kuni Yildirim Boyazidning asir olingani haqida xabarni menga yetkazishdi. Rum sultonini Kaysariyaga olib kelishdi. Shahar tashqarisidagi qarorgohimda ushlab turishdi. Menga u maktub berib yuboribdi. U xatda hurmat ehtirom bildirilgan so'zlarni bayon etib, so'ng quyidagi misrani yozgan edi: „Chunun asr rasmi saroyi burusht, gohi pusht bor zinu, gahi zin bar pusht! (O'tkinchi zamonning rasmi erur shu: goh egar ostingda, ustingda goh u). Taqdir taqozosi va Yaratganning irodasi bilan ey ulug' Amir men mag'lub bo'ldim, sen esa g'olib! [1] Bugun mening hayotim ham, mol-mulkim ham sening ixtiyoringda. Biroq menga bo'lgan munosabating sen haqingda gapirishgan o'ta ulug' sharafaga munosib bo'ladi, deb umid qilaman! Men odamlarimga Boyazidni qattiq qo'riqlashni, ammo hurmatini joyiga qo'yishni tayinladim. Oradan uch kun o'tgach uni huzurimga olib kelishlarini buyurdim. Amir Temur: „ Men sendan to'rtta yengil iltimos qildim; biri shuki, Kemox qal'asini taslim etasan, ikkinchisi – Tahurtan xonadonini bizga yuborasan, uchinchisi Qora Yusuf xonadonini o'z mamalakatingdan chiqarib yuborasan, to'rtinchi bizga donishmand kishlarni yubirasan, toki ular o'rtamizdagi ahdu paymonni

takidlagaylar va buni xushnudlik bilan (senga) yetkazgaylar. (Ammo sen) shu mayda narsalarga ham munoqasha qilding.‖ Boyazid: „ Agar gunohimni kechirsang marhamat raqamini jurmim daftariga tortsang, to tirik ekanman, o‘zim va farzandlarim bandalik va xizmatkorlik maqomida turib umr kechiramiz ...‖ Xazrat Amir Sohibqiron avf ehson raqamini uning gunohlari ustidan tortdi va uni podshohona to‘ni in‘omlar izzat ikromlar bilan siyladi. Shu asnoda u Amir Sohibqironga arz qilib, mening farzandlarim Muso va Mustafoga jang maydonida edilar, ko‘nglim shilarga ilinj bo‘lib turibdi, agar oliy farmon sodir bo‘lsa, ularni topib, tirik bo‘lsalar bu bandalari ga yetkazsalar, shohona in‘omlar yanada ortga bo‘lar edi, dedi. Farmonga muvofiq axtarib keldilar. G‘oyatda ko‘p qidirishlar natijasida bir farzandi - Musoni topib, Sohibqiron xazrat huzuriga olib keldilar. Uning ham qonidan o‘tib otasiga baxshida qildi, shohona to‘n berib, in‘om-ehsonlar bilan sarafroz etdi.[5]

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Amir Temur o‘z davrida barcha egallagan hududlarini bir hokimiyatga birlashtirgan yetuk shaxs bo‘lib, janglarda alohida shuxrat qozonga markazlashgan davlat asoschisi bo‘lgan. Uning jang-u jadallari sharq adabiyoti va tarixida balki g‘arb adabiyoti va tarixida o‘chmas iz qoldirgan, o‘sha davrda yirik bir imperiyaga hujum qilishda hech narsadan tab tortmangan. O‘z maqsadi yo‘lida doim oldinga harakat qilgan shaxs hisoblanganligini ko‘rishimiz mumkin ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulahad Muhammadiyev „Temur va temuriylar saltanati‖ - Toshkent 1994-yil 25-28 bet.
2. Marsel Broun, „ Menkim, Sohibquron- Jahongir Temur‖-Toshkent, 2016-yil 523-544-bet.
3. Forschada Alixon Sog‘uniy va Habibullo Karomatov tarjimasini, „Temur tuzuklaril‖- Toshkent 1991-yil 51-52-bet.
4. Hermon Vamberi „ Buxoro yoxud Movarounnahr tarixil – Toshkent, 1990-yil 31-bet.
5. Nizomiddin Shomiy „ Zafarnoma — — Toshkent, 1996-yil 335-336-bet

INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM